



TAMADDUNURI

Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy,
madaniy-ma'rifiy,
adabiy-badiiy jurnal
Ikki oyda bir marta chiqadi

MUASSIS:

Qoraqalpog'iston Respublikasi
Beruniy tumani hokimligi
Hamkorlarimiz:
O'zRFA Qoraqalpog'iston bo'limi
Xorazm Ma'mun akademiyasi

JAMOATCHILIK KENGASHI:

Sirojiddin SAYYID
Muhammad ALI
Kengesboy KARIMOV
Iqbol MIRZO
Guliston MATYOQUBOVA
Qurbon SHONIYOZOV
O'rozboy ABDURAHMONOV
Murotboy JUMANOV

BOSH MUHARRIR:

Manavvara QURBONBOYEVA

BO'LIM MUHARRIRI:

Anvar ALLAMBERGENOV

Tahrir Hay'ati:

Akmal SAIDOV
Nag'met AIMBETOV
Qahramon QURONBOYEV
Zarifboy DO'SIMOV
Olmos ULVIY
Vahob RAHMONOV
Baxtiyor KARIMOV
Alima BERDIMURODOVA
Marat NIYOZIMBETOV
Almagul BAYRIYEVA
Yaxshibeka ABDULLAYEVA
Masharib ABDULLAYEV
O'ktam MAVLONOV
Qozoqboy YO'LDOSHEV
Safo MATJONOV
Mels QOBULOV
Userboy ALEUV
Bozorboy ORAZALIYEV
Kozimbek TUXTABEKOV
Dilbar URAZBAYEVA

Rassom: Alibek ABDURAHMONOV

Sahifalovchi-bezovchi:

G'iyosiddin O'NAROV

Texnik muharrir:

Ulug'bek SAIDOV

Ushbu son "Tamaddun nuri" jurnali
tahririyatining kompyuterida
sahifalandi.

Jurnal OAK e'tirof etgan
nashrlarning 07.00.00 "Tarix",
09.00.00 "Falsafa", 10.00.00
"Filologiya" ixtisosligi bo'yicha
ro'yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

JAMIYAT

<i>Rustam KURBANBAYEV.</i> To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risidagi Qonunning o'ziga xos xususiyatlari.....	2
<i>Spartak NIYAZOV.</i> Investitsiyaviy nizolarning sudlovga taalluqliligi.....	4

TARIX

<i>Yarash G'AFFAROV</i> Milliy va umuminsoniy qadriyatlar birligining ahamiyati.....	6
<i>Jahongir KAMOLOV</i> Eftaltilar davlati shakllanish jarayonining yozma manbalar va numizmatik materiallarda aks etishi.....	12
<i>Sanjarbek DAVLETOV, Sirojbek ALLANAZAROV</i> Milliy taraqqiyotning mustahkam poydevori.....	15
<i>Feruza DJUMANIYAZOVA.</i> Eftaltilarning al-Hinddagi keying taqdiri: turk-eftaliy yaqinligi.....	18
<i>Alisher TOJIYEV</i> Turizm sohasidagi bilim va madaniyatni yuksaltirish.....	21
<i>Nurbek MATYAKUBOV</i> Mustaqillik yillarida xususiy uy-joylar qurishning ayrim jihatlari.....	24
<i>Sunnatullo ISMOILOV.</i> O'zbekistonning neft va gaz sanoati sohasidagi hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilishi va xorij sarmoyalarining jalb etilishi.....	28
<i>Nodirjon XUSHVAQTOV</i> Tasvirli va ko'rgazmali manbalar orqali buyuk Ipak Yo'li tarixini o'rganish.....	30
<i>Izzat YUSUPOV.</i> Mustaqillik yillarida O'zbekistonda radio aloqa tizimining rivojlanish tarixi.....	34
<i>Saparboy NAVRUZOV, Abror KOMILOV Akademik Vasiliy Viladimirovich Bartold Turkistonda madaniy hayot tarixi tadqiqotchisi.</i>	37
<i>Nodirbek KOMILOV</i> Turkiston Muxtoriyati tarixi mahalliy va xorij olimlari nigohida.....	40
<i>Yuldash YULDASHEV</i> Sovet davrida xorazm viloyatida arxiv ishi shakllanishi jarayonlarining ba'zi masalalari.....	43
<i>A'loxon ABDULLAYEVA.</i> Tarixiy manbalar va adabiyotlarda Janubiy Orolbo'yidagi boshqaruv tizimiga oid ayrim ma'lumotlar.....	46

FILOLOGIYA

<i>Shahnoza AQMANOVA.</i> Parema-bibliyonimlarning mazmuniy guruhlari.....	49
<i>Nodira ALLAMBERGENOVA.</i> "Alpomish" dostoni bosh qahramonlar tasvirida milliy ma'naviy o'ziga xosliklar ifodasi.....	52
<i>Xurshid SEROBOV</i> Navoiy xarakterini yaratishda "ota-o'g'il" konflikti motivi.....	56
<i>Ilhom KAZAKOV.</i> O'zbek Tilshunosligida til va madaniyat yaxlitligi masalasi.....	60
<i>Shaxlo RAMANOVA.</i> A'Zam O'ktam she'riyatida islomiy-ma'rifiy tuyg'ular.....	100

FALSAFA

<i>Madamin ABDULLAYEV</i> Maxtumquli dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy muhit.....	9
<i>Inonjon ASATULLOYEV.</i> Global axloqiy inqiroz sharoitida ijtimoiy qalbni yuksaltirish va erkinlashtirish vazifalari.....	63
<i>Kamol ISLAMOV.</i> Sharq Renessansi va uning o'ziga xos xususiyatlari.....	66
<i>Sanjarbek KO'PALOV.</i> Imkoniyati cheklangan kishilarni himoya qilishning milliy ijtimoiy-huquqiy aspektlari.....	69
<i>Saidjon HAMROYEV.</i> O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy himoya darajasini aniqlashtirish va ijtimoiy adolatni o'rnatishning ustuvor jihatlari.....	74
<i>Isobek SHERMANOV.</i> Biotexnologik jarayonlarni tadqiq qilishning falsafiy-metodologik asoslari.....	77
<i>Nigora ZAKIROVA.</i> Axborotlashgan jamiyat va milliy o'zlikni anglashning o'zaro munosabatlari.....	81

TILSHUNOSLIK

<i>Сервиноз АБДУЛЛАЕВА.</i> Теоретические основы изучения семантики слов русского языка.....	85
<i>Мафмуна АХУНОВА.</i> Текст как основа развития речевой деятельности на занятиях русского языка "Shajarayi turk'da paremik janrlar.....	88
<i>Zohida MUQIMOVA.</i> Madaniyat kodi – madaniyatni tushunish kaliti.....	92

PEDAGOGIKA

<i>Yulduz NURJANOVA.</i> Adabiy ta'limda xalq og'zaki ijodini o'qitishda jadval va illyustratsiya materiallaridan fo ydalanish.....	86
---	----

Manzilibiz: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani
"Xalqlar do'stligi" ko'chasi, 11-uy. e-mail: qurbonboyeva@inbox.ru
Tel.: (+99888) 036 00 55

Bosishga 05.10.2022-yilda ruxsat berildi.

Qog'oz bichimi 60x84 %. Nashriyot hisob tabog'i 6,5. Indeks – 960
Jurnal 2016-yil 28-sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0843 raqami bilan qayta ro'yxatdan o'tgan.
Jurnaldan ko'chirib bosilganda "Tamaddun nuri" dan olindi deb izohlanishi shart. Matn hamda reklamalardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldir.
Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
"MAX-PRISTIL" MChJ bosmaxonasida chop etildi. Buyurtma № 17.
Adadi 660 dona. Toshkent shahri, Olmazor tumani, Ziyo ko'chasi 6-uy..
ISSN 2181-8258

MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR BIRLIGINING AHAMIYATI



Yarash G'AFFAROV,
Chirchiq davlat
pedagogika instituti
professori, t.f.d



Annotatsiya: Barcha jahon olimlari hozirgi umumbashariy muammolarni umuminsoniy maqsadlardan kelib chiqib hal etmasdan turib, o'z milliy kelajaklarini dunyo bo'yicha mushtarak xavf-xatarlardan, qurolli ixtilof, ekologik falokatlar, qashshoqlik va ocharchilikdan, iqtisodiy, siyosiy va madaniy yagonalashuvdan, moddiy va ma'naviy meroslar halokatidan qutqarib qolishi mumkin emas. Maqolada milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi ma'lumotlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: tasavvur, ko'lam, ehtiros, ibrat, xotira, tarixiy adolat, kamolot, tafakkur, ruhiyat, millatparvar, milliy g'urur, mezon

Аннотация: Прогрессивные силы пытаются увязать национальные интересы и ценности своих стран с растущими интересами мира. Без решения текущих глобальных проблем на основе общечеловеческих целей все ученые мира могут спасти свое национальное будущее от общих угроз во всем мире, вооруженных конфликтов, экологических катастроф, бедности и голода, экономической, политической и культурной интеграции, материальной и духовной. не может спасти от уничтожения наследия. В статье анализируются сведения о национальных и общечеловеческих ценностях.

Ключевые слова: воображение, масштаб, страсть, пример, память, историческая справедливость, совершенство, мышление, психика, национализм, национальная гордость, критерии

Annotation: Progressive forces are trying to link the national interests and values of their countries with the growing interests of the world. Without solving the current global problems on the basis of universal goals, all the world's scientists will be able to save their national future from common threats around the world, armed conflict, environmental disasters, poverty and famine, economic, political and cultural integration, material and spiritual. cannot save from the destruction of heritage. The article analyzes information about national and universal values.

Key words: imagination, scale, passion, example, memory, historical justice, perfection, thinking, psyche, nationalism, national pride, criteria.

“**B**iz o‘z diniy qadriyatlarimizni ulug‘lab, e‘zozlab yashar ekanmiz, hozirgi yuksak texnologiyalar asrida mustahkam iymon-e‘tiqod bilan birga zamonaviy ilm-fan, kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egalash, innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni chuqur o‘zlashtirish, yoshlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash barqaror taraqqiyotga erishishning eng muhim sharti ekanini yaxshi tushunamiz [1]”.

Dunyo xalqlari umumiy insonparvarlik qadriyatlarini va hamma uchun yagona bo‘lgan shaxs huquqlarini xurmat qilishni qabul qilmaganlariga qadar ular oldida va butun hamjamiyat oldida turgan muammolarning birortasi ham muvaffaqiyatli hal etilishi, xalqaro xavfsizlikning ham mustahkam himoya qilinishi mumkin emas. Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi shu qadar qat‘iyki, ular bir-biri bilan shunchalik mustahkam “Chatishib” ketganki, ularning loaqal birortasini “Tushib” qolishi butun zanjirning uzilishiga olib kelishi mumkin. Butun insoniyatga tuzatib bo‘lmaydigan zarar yetkazishga qodir, tor ma‘noda tushuniladigan milliy qadriyatlarning torozi pallasini bosib ketishi tufayli og‘ish sodir bo‘lmasligi uchun buni doim esda tutish lozim.

Biz o‘z milliy manfaatlarimizni, milliy, mintaqaviy va umuminsoniy qadriyatlarimizni e‘tiborga olish bilan bir qatorda boshqa davlatlarning manfaatlarini ham hurmat qilishimiz kerak. Zero, haqiqatdan tinchlik, yaxshi qo‘shnichilik, har tomonlama hamkorlik, o‘zaro ishonch – nafaqat omon qolish, balki ko‘pgina ijtimoiy vazifalarni hal etishga, insonlarning siyosiy huquqlarini, milliy va ma‘naviy boyliklari va meroslarini saqlash orqali umummilliy qadriyatlarni ta‘minlash hamdir. Shu bilan birga dunyoda, ayrim mamlakatlardagi qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, partiyalar, davlatlar va ular tartibotlarining o‘ziga xos vazifalari real muammolarni hal qilishning shoshilinchligini inkor etish, ularning umuminsoniy manfaatlarini yanada ta‘sirchan himoya qilishga intilishi bilan belgilanuvchi taraqqiyparvar harakatlarning obro‘si, ta‘sirini oshirish imkoniyatlariga e‘tibor bermaslik mulohazasiz ish tutish bo‘lur edi [2].

Umuminsoniy va milliy qadriyatlarning o‘zaro munosabatini tarixiy tushunish mamlakat ichida ham jahon maydonida ham samarali ta‘sirchan siyosatni, iqtisodiyot va madaniyatni yaratish juda katta ahamiyatga ega.

Hozirgi davrdagi jarayonlarni tadqiq qilishga yangicha tafakkurni izchillik bilan qo‘llash dunyoning chinakam ilmiy manzarasini yaratishga, uning davlatlar, siyosiy va jamoat tashkilotlarining

o‘zaro ijobiy, bunyodkorona hamkorligini yo‘lga qo‘yishga yordam beradi. Biz endilikda inson zotining mushtarakligini, uning taqdiri mushtarakligini anglab eski andozalardan asta-sekin xalos bo‘layapmiz, yangicha tafakkurda nafaqat tafovut va ixtiloflarning, balki yangicha hayot uchun g‘oyat zarur bo‘lgan tajribaning juda boy manbaini ham topmoqdamiz.

Milliy qadriyatlarni umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirish hukumatlar, siyosiy kuchlar, barcha ijtimoiy guruhlar va jamoalardan o‘z manfaatlarini va faoliyatlarini xalqaro munosabatlarga insonparvarlik ruhini singdirish yo‘li bilan fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratishni taqozo etadi.

Har bir insonning kelajak hayoti, uning baxt-saodat qadriyatlar bilan uzviy bog‘liqdir. Shuning uchun ham hozirgi murakkab vaziyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yanada yaqinlashtirish katta ahamiyatga egadir. Bunda mamlakatlar, xalqlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash katta o‘rin tutishini e‘tibordan soqit qilish mumkin emas.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash, nohaq unutilgan tarixiy siymolar xotirasini e‘zozlash, aziz-avliyolarimizning qadam joylarini mo‘tabar ziyoratgohlarga aylantirish, bir so‘z bilan aytganda tarixiy adolatni qaror toptirish borasidagi keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Ayni vaqtda ajdodlarimiz tarixi va qadriyatlari tiklanayotganligi mustaqilligimizning ajoyib samarasidir. Xalqimizning kechmishi, tarixi va hayotini aks ettirgan asarlarning o‘z ona tilimizda nashr etilgani quvonchimizga quvonch qo‘shmoqda. Endilikda o‘timishimizning ko‘pgina sahifalari, hujjatlar, qo‘lyozma materiallari birinchi manbalar asosida yoritilmoqda. Tarixiy qadriyatlar va haqiqatlar asl manbalarga tayanib tiklanmoqda. Ularning hammasi tarixiy adolatning buyuk g‘alabasi tantanasidir. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo‘lgan inson dunyoqarashini shakllantirishi va rivojlantirishida katta ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek “Buyuk tarixda hech narsa izziz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo‘ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlardan-avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir”[3].

Umuman olganda qadriyatlar amal qilish doirasiga ko‘ra milliy, mintaqaviy va umum insoniy, turlarga bo‘linadi. Milliy qadriyatlar murakkab ijtimoiy-ruhiy hodisa bo‘lib, u millatning tili, madani-

yati, tarixi, urf-odatlari, an'alarini, jamiki moddiy va ma'naviy boyliklarini, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tomonlarini qamrab oladi. Insonning qaysi millatga mansub ekanligi haqidagi tasavvuri faqat g'oyagina emas, balki tuyg'u hamdir. Bu tuyg'u kishida millatning tarixi, ruhiyati, hozirgi xolati va xususiyatini tushunishni his qilish shaklida mujassamlashgan bo'ladi. Insonda milliy ong va g'urur bo'lmasa u o'zini qaysi millatga mansubligini his etmasa, uning milliy qadriyatlarini anglashni tasavvur qilish qiyin. Toki millatlar, milliy mafkuralar mavjud ekan, milliy munosabatlar ham, milliy his tuyg'ular ham, milliy qadriyatlar ham saqlanib qolaveradi. Millatni milliy qadriyatlardan maxrum qilishga urinish tarix va insoniyat oldida eng katta jinoyatdir.

Mintaqaviy qadriyatlar iqtisodiyoti, madaniyati, tarixi, tili, dini, urf-odat va ana'analari mushtarak bo'lgan xalqlar manfaatlariga xizmat qiladigan tabiiy va ijtimoiy hodisalar majmuasini tashkil etadi.

Qadriyatlar jamiyatimiz boyligi bizning milliy iftixorimiz, ulami avaylab asrash va muxofaza qilish barchamizning burchimizdir. "Fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy va madaniy merosini avaylab asrashga majburdirlar. Madaniyat yodgorliklari davlat muxofazasidir"[4] deb yozib qo'yilgan Konstitutsiyamizda.

Qadriyatlar katta ijtimoiy-siyosiy, falsafiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular o'tmish bilan hozirgi kun o'rtasidagi vorisiylikni ifodalaydi, shu tufayli millatning tarixi uning o'tmish hayoti madaniyati gavdalanadi. Shuning uchun har bir siyosiy tuzum, har bir davlat qadriyatlaridan o'z maqsadi, manfaati yo'lida foydalanib kelgan va hozirda ham shunday bo'lib qolmoqda.

O'z xalqining tarixini, milliy qadriyatlarini, tiling istiqbol manfaatlarini bilmagan, qadrlamagan,

millat uchun jonini fido qilishga tayyor turmagan kishilarda milliy g'urur ham, o'z millati bilan faxrlanish hissi ham, millatparvarlik ham bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda:

Birinchidan, o'zbek xalqida o'z o'tmishi, tarixi, qadriyatlariga bo'lgan qiziqish kun sayin ortmoqda;

Ikkinchidan, madaniy merosning taboro tiklanishi o'zbek xalqi o'zligini anglashiga qulay sharoit tug'dirmoqda;

Uchinchidan, milliy o'zlikni anglash hissiyoti milliy urf-odat, an'ana va bayramlarga sodiq bo'lish, milliy san'at, adabiyot til, ilmu-fan sohalarida ham milliy xususiyatning yo'qotmaslikni taqozo etadi;

To'rtinchidan, madaniy merosimizni tiklab, uni o'rganishga kirishganligimiz mustaqillik tufayli boshlanganligini hisobga olsak, hali bu merosimizni o'rganish uchun juda ko'p vaqt va kuch kerakligini e'tirof etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Mirziyoyev. *Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir*. T., "O'zbekiston" 2019 yil, 2-jild, 483-bet.

2. Sh. Mirziyoyev. *Ta'lim va ma'rifat-tinchlik va bunyodkorlik sari yo'l*. T., "O'zbekiston" 2019 yil, 1-jild, 29-bet.

3. J. To'lanov. *Hayot falsafasi*. T. "O'zbekiston", 1993, 261bet.

4. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. "O'zbekiston", 2016 yil, 17-bet, 49-modda.

5. Safo Ochil. *Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari*. T. O'qituvchi, 1997, 149-bet

6. G'afforov Ya.X. *Values-is the history of the nation. International Journal of Academic and Applied Research (IJAAR) Washington DC, 62-64 pp.*





RESUME:

You will find articles by R. Qurbanbaev in the “Society” column of our magazine.

In the “History” column, a number of scientists and researchers such as D.Abdullaev, O.In'omov, I.Mamajanova, Yo.Rozimova, S.Navruzov, D.Erkinova, Sh.Yusupov, H.Eshchanova, H.Hakimova are interesting from each other with their articles, they bring the known and unknown information of history to us.

In the Philology column, M. Qurbaniyazov, M. Abdullaeva, A. Sartaev, R. Saparniyazov, N. Sobirova will delight magazine readers with their interesting articles.

F.Eshnazarova, A.Orazboev, S.Rakhmonov participate in the “Philosophy” column with their articles.

“Linguistics” column contains articles by G. Ergashova, M. Bayrieva, O. Jumaboeva.

You will get acquainted with the works of the young artist S. Allambergenova.

You will learn about the meanings of some words used in our language in the next paragraphs in the “Journey to the Kingdom of Words” column.